

## IRONIYA VA UNING O'RGANILISHI

*Tursunova Sojidaxon Axmadjon qizi*

*[Sojidatursunova0525@gmail.com](mailto:Sojidatursunova0525@gmail.com)*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O'zbek tili mutaxassisligi 1-kurs tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Insonlarning o'zaro aloqa qilishlarida eng asosiy vosita til hisoblanadi. Tilimizda so'zlardan turli maqsadlarda foydalanamiz, ular har xil mazmundagi xabarlarni ifodalashga xizmat qiladi. So'zlardan o'z o'rnida, to'g'ri foydalanish insonlar nutqining boyishiga sabab bo'ladi. Ironiya nutqning silliq, bejirim bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada ironiya, uning turlari, situativ va gradual ironiya, kinoya, ko'chim, paranomaziya, ironiyani satiraga yaqinlashtiruvchi holatlar, ularning farqli jihatlari haqida so'z yuritilgan. Qolaversa, ironiyaning salbiy va ijobjiy bo'yoqdor so'z ekanligi tahlil qilingan, misollar bilan dalillangan.

**Kalit so'zlar:** ko'chim, ironiya, situativ ironiya, gradual ironiya, kinoya, satira va ironiya munosabati hamda boshqalar.

Atrofimizni o'rab turgan barcha narsalar doimiy harakatdadır. Jamiat ham, tabiat ham, nabotot ham, hayvonot ham, hattoki aloqa vositasi bo'lgan til va aloqa shakli hisoblangan nutq ham. Zero, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, doimiy harakatda bo'lish tiriklikdan nishonadir. Bunday harakat natijada o'sishga, o'zgarishga, rivojlanishga, unutilishga va hatto batamom yo'q bo'lishga olib kelishi mumkin. Hayotimizda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, shubhasiz, inson hayotining turli sohalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Jumladan, har bir insonning nutqiy faoliyati asosini tashkil etuvchi vositalar doimiy harakatda bo'lib, taraqqiyot natijasida turli o'zgarishlarga yuz tutishi tabiiy: ayrim vositalar eskirib iste'moldan chiqadi, yangilari paydo bo'lib, tilni boyitadi, ba'zilarining ma'no va

funksiyalarida o'zgarishlar yuzaga keladi. Tildagi juda ko'p badiiy vositalar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'nolarni ifodalaydi, so'zlovchining biror bir maqsad uchun mo'ljallangan bezakni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi tilning estetik vazifasini yuzaga chiqarishda, umuman olganda, badiiy matnni pragmatik jihatdan tahlil etishda qimmatli manbalar hisoblanadi. Badiiy matnda yozuvchining maqsadini aniq namoyish qilishida ularning o'rni beqiyosdir.

Avvalo, ko'chimlarga to'xtalsak, ko'chimlar deyilganda "adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatalishi" nazarda tutiladi. Ko'chimlar deyarli ko'pchilik adabiyotlarda "troplar" atamasi ostida o'rganilgan. "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" qo'llanmasida ko'chimlar quyidagicha tasnif qilingan: "1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozi. 2. So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya". Qolgan tasviriy vositalar mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi: "simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironianing; litota – meyozi ning ko'rinishlaridir".

Kinoya ham ko'chimning bir ko'rinishidir. Kinoya deb "til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chim"ga aytildi. Kinoya qadimdan adabiyotimizda ta'sirchan ifodalar yaratishda qo'llanilib kelingan. Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa "ironiya" atamasi ostida umumlashtiriladi. Uning antifraza (masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo'li bilan inkor qilish) hamda sarkazm (zaharxanda ta'na, istehzoli piching, shama) deb ataluvchi ko'rinishlari farqlanadi. Perifraz deb ataluvchi tasviriy ifodalar ham badiiy nutqning emotsiyal-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanadi. Perifraz deb "narsa, hodisani o'z nomi bilam emas, ularni xarakterli belgi – xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash"ga aytildi. Shuni unutmaslik kerakki, har qanday narsa-hodisa

nomini boshqa ibora bilan atayverish kutilgan effektni bermaydi. Atalayotgan hodisa bilan yangi nom-ibora o'rtasida mazmuniy yaqinlik bo'lishi lozim. Masalan, uchuvchilar – samo lochinlari, akula – suv osti hukmdori, sher – hayvonlar sultonii, Samarqand – Sharq darvozasi, teatr – ma'naviyat o'chog'i, yoshlik – sevgi fasli kabi. [M.Qurbanova, M.Yo'ldoshev 2014:66-70].

Ironiya estetikaning kategoriyasi bo'lib, qadimgi notiqlik an'analaridan kelib chiqadi. Bu XIX asrning so'nggi choragidan beri alohida rivojlanib keladi. Ironiyada so'zlovchi voqeani jiddiy bayon qilganday bo'ladi, ammo til vositalarini ko'chma ma'noda qo'llab, biron shaxs yoki voqelik ustidan kesatiq bilan kuladi. Boshqacha qilib aytganda, so'zlovchi nutqining zaminida haqiqiy ma'noga zidlanuvchi asosiy maqsad – kulgi yoki kinoya ma'nosи yashiringan bo'ladi.

Nutqda so'z va iboralarning kesatiq yoki piching orqali o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatish usuli ironiya deyiladi. [Shomaqsudov 1983:241]. Ironik mazmun ko'proq hajviy tur va uning janrlari muammosiga bog'langan bo'lib, ular bilan ko'proq adabiyotshunoslik fani shug'ullangan. Adabiyotshunoslikda hajviy turlar sirasiga kiruvchi satira va yumorga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar mavjud. Ularning orasida turli tillarda yozilgan tadqiqot ishlari borki, bunga misol tariqasida Y.B.Borevning "Komika haqida", V.Y.Proppning "Komizm va kulgi muammolari" kabi ishlarini keltirish mumkin. Bu tadqiqot egalarini satira va uning o'rganilish tarixi, ijtimoiy ahamiyati, ta'sir etish texnikasi va mexanizmiga munosabat kabi masalalar qiziqtirgan.

Keyingi yillarda tilshunoslar o'rtasida ham satira va humor muammolari va ularning til hodisalariga ta'sir o'tkazish yo'llari hamda uni ifoda etuvchi lisoniy vositalarni o'rganish masalasiga e'tibor qaratila boshlandi. Bunday izlanishlardan biri ironiya bo'lib, ayrim tadqiqot ishlarida unga stilistik usul sifatida qarala boshlandi. Dastlabki tadqiqot ishlarida ironiyaning yuzaga chiqish mexanizmi mazmundorligini izohlashga harakat qilingan, lekin ular ironiyaning nutq hodisasi sifatidagi talqinidan ancha yiroq edi. Fikrimizning isboti sifatida N.Noksning "So'z ironiyasi va uning tag ma'nosи" [Knox 1966:258] nomli tadqiqotini misol keltirishimiz mumkin.

So'nggi vaqtarda ironiya muammosi ko'proq chet el tilshunoslari diqqatini o'ziga jalg qilmoqda. Bu haqda D.Myukke shunday yozadi: "Ko'plab yozuvchilar uchun ironiya uslubiy yoki dramatik tur emas, balki hozirgi paytning umumiy yo'nalishi sifatida shakllangan fikrlash qobiliyatidir". [Mueske 1969:276]. Ko'rinib turibdiki, tadqiqotchi ironiyaga nisbatan kengroq, jiddiy va tanqidiy munosabatda bo'lishni alohida ta'kidlamoqda.

Ironiyani satiraga yaqinlashtiruvchi holatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) Har ikkisi ham yumordan farqli ravishda tanqidni ifoda etadi;
- 2) Satira ham, ironiya ham erkin, hissiy xarakterga ega. Masalan, B.O.Dzemidokning "Komika haqida", Vayserning "Satira va ironiya kommunikatsiya mazmuni sifatida" asarlari shular jumlasidandir.

Ironiyaning satira va humor o'rta sidagi oraliq usul hisoblanmasligining sababi shundaki, ironiya komik usullarga o'xshab reallashmaydi. Agar ironiyani oraliq usul deb oladigan bo'lsak, u faqat hissiyot orqali ifodalanadigan "tezlik bosqichi" dan iborat bo'lib qoladi. Ironiya "bo'yalgan kulgi" bo'lib, haqiqiy mavjudlik ma'nosini inkor etadi. Ironiya satiradan shu narsa bilan farqlanadiki, satira modallikni ochiq namoyon etsa, ironiya subyektiv munosabatni yopiq holda, yashirin ifodalaydi.

Adabiyotshunoslikda ironiyaning komik usul hisoblanishi bu uslubiy vositaning nutqiy xarakteristikasiga salbiy ta'sir etmaydi. Ironiya stilistikada uslubiy vosita sifatida qat'iy tan olingan. Faqatgina ironiyaning inson fikrlash qobiliyati, dunyoqarashiga o'xhash vosita sifatidagi xususiyati adabiyotshunoslari va tilshunoslarni bu vosita haqida ikki xil tarzda fikrlashga majbur etadi. Bularning birinchisi ironiyani uslubiy vosita turi sifatida, ikkinchisi ironiya subyektiv munosabat ma'nosida talqin qilinishidan iborat.

Adabiyotshunoslari, xususan, B.Alleman ironiyani "ruhiy holat" va quruvchi faktor sifatida baholaydi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan esa ironiya so'zlovchining ma'lum bir niyat-maqsadini yo'naltirishga xizmat qiluvchi salbiy subyektiv munosabatini ifodalash usuli hisoblanib, nutqning ta'sirchanligini oshirishga katta yordam beradi.

Ko'p tilshunoslar, masalan, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev, H.Homidiy, A.Hojiyev ironiyaga deyarli bir xil ta'rif beradilar. Ular fikricha ironiya o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatalishi natijasida hosil bo'ladi. [E.Ibragimova 2001:15].

Kinoya, - deb yozadi Sh.Abdurahmonov, - bevosita maqsadli, tagma'noli matnda hosil bo'ladi. Kinoya zaminida o'z navbatida, tanqidiy kulgi yotadi. Tadqiqotchining fikricha, matndagi til birliklarining kinoya ekanligini anglashda, presuppozitsiya muhim rol o'ynaydi.

Qolaversa, paronomaziya hodisasi ham kinoya hosil qilishda alohida ahamiyatga ega. [Sh.Abdurahmonov 1998:24].

Aytlishi va yozilishiga ko'ra bir-biriga yaqinlashib qolgan so'zlarga paronimlar deyiladi. O'zbek tilidagi paronimlar deyarli yasama so'zlarda uchraydi. Paronimiya hodisasining paydo bo'lishida nutqiy jarayonlar, xususan, intonatsiya, urg'u, bo'g'in muhim rol o'ynaydi.

Paronimiya hodisasi badiiy adabiyotda so'z o'yinlari, qochirimlar yashashda keng ishlataladi. Masalan, kurort so'zining ko'r ot, uzum so'zining o'zim, jinoyat so'zining jin oyat tarzida qo'llanilishi bunga misol bo'la oladi. Bu hodisaga paronomaziya deyiladi.

Ispaniya Qirollik akademiyasining lug'atiga ko'ra, paronomaziya – jumla ichida fonetik yoki tovush o'xshashligiga ega, lekin ma'no jihatidan farq qiladigan ikki yoki undan ortiq atamalardan foydalanish.

Paronomaziya yunon tilidan olingan bo'lib, "yaqin ism" deb tarjima qilingan. Shu ma'noda paronomaziya yozilishi va talaffuzi jihatidan o'xhash bo'lган ikki so'z o'rtasidagi yaqinlikdan tashkil topgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ironiya qadim davrlardan buyon ilm ahlining qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Ironiya ustida adabiyotshunoslar ham, tilshunoslar ham ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Ilmiy tadqiqotlardan bilishimiz mumkinki, ironiya nutqimizning ta'sirchanligini oshiruvchi vositalardan biri bo'lishi bilan birga ham salbiy, ham ijobjiy bo'yoqdorlikka ega.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdurahmonov Sh. Kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar. Filol.fan.nom.diss.avtoref., 1998.
2. Ibragimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari. Filo.fan.n.diss. 6918/2001.
3. Knox N. The word "irony" and its context. – Durham (N.C.): Duke univ.press, 1966.
4. Mueske D.C. The compass of irony. – London: Methuen d LTD, 1969. C.10. – P.276.
5. Odilov Y. O'zbek tilida enantiosemiya. Dis-232/2016.
6. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.